International Journal of Education, Social Science & Humanities.
Finland Academic Research Science Publishers
ISSN: 2945-4492 (online) | (SJIF) = 8.09 Impact factor
Volume-14| Issue-11| 2026 Published: |22-11-2026|

TA'LIM JARAYONIDA XORAZM MILLIY TABIAT BOG'I MISOLIDA O'QUVCHILARNING EKOLOGIK-O'LKASHUNOSLIK KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISH

Maxmudova Dilora Ibragimova
Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti
Qo'shnazarova Gulnoza Usmon qizi
Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti

Annatatsiya: Ushbu maqolada Xorazm milliy tabiat bog'ining ekologik salohiyati hamda muammoli ta'lim, ekologik marshrutlar va interaktiv seminarlar orqali o'quvchilarning ekologik-o'lkashunoslik kompetensiyalarini shakllantirish va rivojlantirish metodikasi yoritilgan. Taklif etilayotgan pedagogik yondashuv o'quvchilarda mintaqaviy biologik xilma-xillikni asrashga nisbatan shaxsiy mas'uliyat hissini shakllantirish, ekologik bilim va ko'nikmalarini mustahkamlash hamda egallangan amaliy ko'nikmalarni kundalik hayotda va keyingi ta'lim bosqichlarida samarali qo'llashga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: Xorazm milliy tabiat bog'i, ekologik-o'lkashunoslik kompetensiyalari, innovatsion pedagogik texnologiyalar, fanlararo integratsiya, ekotizimlarni muhofaza qilish, muammoli ta'lim (PBL), biologik xilma-xillik monitoringi, ta'lim jarayoni.

Bugungi kunda global ekologik inqirozlar, iqlim o`zgarishi va bioxilma - xillikning qisqarishi sharoitida o`sib kelayotgan yosh avlodda ekologik ong va madaniyatni shakllantirish dunyo miqyosidagi ustuvor vazifalardan biriga aylandi. Zero, ekologik muammolarni faqatgina iqtisodiy yoki texnik vositalar bilan emas, balki eng avvalo inson omili, ya'ni ta'lim - tarbiya tizimini tubdan isloh qilish orqali hal etish mumkin. O`zbekiston Respublikasida ham barqaror rivojlanishni ta'minlash hamda uzluksz ta'lim tizimida ekologik ta'lim konsepsiyasini samarali joriy etish davlat siyosatining muhim yo'nalishlaridan biri sifatida belgilangan.

Ekologik ta'limni shunchaki quruq nazariy ma'lumotlar bilan cheklamasdan, uni hududiy - amaliy asosda tashkil etish yuqori samara beradi. Shu nuqtai nazardan, o'quvchilarning ekologik o'lkashunoslik kompetensiyalarini shakllantirish alohida ahamiyat kasb etadi. Ekologik o'lkashunoslik yondashuvi o'quvchiga o`zi yashab turgan hududning tabiati, o`ziga xos ekotizimlari va mavjud ekologik muammolarni bevosita his qilish, tahlil qilish va ularga yechim topish imkonini beradi. Xorazm viloyati o`zining keskin kontinental iqlimi,

International Journal of Education, Social Science & Humanities.
Finland Academic Research Science Publishers
ISSN: 2945-4492 (online) | (SJIF) = 8.09 Impact factor
Volume-14| Issue-11| 2026 Published: |22-11-2026|

Orolbo`yi hududiga yaqinligi, suv tanqisligi va yerlarning sho`rlanishi kabi o`ziga xos ekologik xususiyatlari bilan ajralib turadi. Hududda tashkil etilgan , umumiy maydoni 21687,5 gektarni tashkil etuvchi " Xorazm" milliy tabiat bog`i o`zining boy cho`l va to`qay ekotizimlari, noyob florasi va faunasi bilan o'quvchilar uchun eng ideal va jonli tabiiy laboratoriya vazifasini o`taydi. Biroq, ta'lim jarayonida ushbu tabiat bog`ining metodik imkoniyatlaridan tizimli foydalanish, dars va darsdan tashqari mashg`ulotlarni integratsiya qilish mexanizmlari hali ham yetarlicha tadqiq etilmagan va amaliyotga to`liq joriy qilinmagan.

Uzluksiz ta'lim tizimida ekologik ta'lim va tarbiyaning pedagogik, psixologik hamda metodik asoslari ko`plab xorijiy va respublika olimlari tomonidan tadqiq etilgan. Jumladan, ekologik madaniyat va kompetensiyalarni rivojlantirish muammolari A.N.Zaxlebniy, I.D.Zverev, I.T.Suravegina kabi olimlarning ishlarida nazariy jihatdan asoslangan. O`zbekistonlik pedagog olimlardan J. O. Tolipova, A. T. G'ofurov. S.B. Mustafayev va boshqalar biologiya hamda ekologiya ta'limi metodikasini takomillashtirish masalalarini tadqiq qilganlar. Shuningdek, o`lkashunoslik tamoyillarini ta'limga joriy etish borasida respublikamiz olimlarining qator ilmiy izlanishlari mavjud bo'lsa-da, aynan " Xorazm" milliy tabiat bog`ining o`ziga xos tabiiy - amaliy materiallari asosida o'quvchilarning ekologik o`lkashunoslik kompetensiyalarini (kognitiv, pragmatik, aksiologik) tarkib toptirishning innovatsion metodik tizimi yaxlit pedagogik tadqiqot obyekti sifatida batafsil o`rganilmagan.

Ushbu tadqiqotning asosiy maqsadi - ta'lim jarayonida (biologiya, geografiya, kimyo va ekologiya fanlari kesimida) " Xorazm " milliy bog`ining tabiiy va ekologik ma'lumotlardan foydalangan holda, o'quvchilarning ekologik o'lkashunoslik kompetensiyalarini shakllantirish metodikasini ishlab chiqish hamda uning samaradorligini pedagogik yondashuvlar orqali asoslashdan iborat.

O`tkazilayotgan tadqiqotlar natijasida ta'lim jarayonida " Xorazm " milliy tabiat bog'ining o`ziga xos to`qay va cho`l ekotizimlari, shuningdek, hududning noyob bioxilma - xilligi biologiya, geografiya va kimyo fanlari darslariga muvaffaqiyatli integratsiya qilindi hamda o'quvchilar uchun o'ziga xos " jonli tabiiy laboratoriya " vazifasini o`tashi asoslab berildi. Dars jarayonida real va virtual eko - ekskursiyalar hamda keys-stadi kabi interaktiv metodlarning qo'llanishi o`quvchilarning fanga bo`lgan qiziqishini oshirish bilan birga, ularda ekologik mas'uliyatni, ya'ni kognitiv, pragmatik va aksiologik o'lkashunoslik kompetensiyalarini tizimli shakllantirishga xizmat qildi. Kelajakda ushbu yo`nalishdagi pedagogik samaradorlikni yanada oshirish uchun maktablar uchun tabiat bog`i materiallariga asoslangan hududiy metodik qo`llanmalar yaratish,

International Journal of Education, Social Science & Humanities.
Finland Academic Research Science Publishers
ISSN: 2945-4492 (online) | (SJIF) = 8.09 Impact factor
Volume-14| Issue-11| 2026 Published: |22-11-2026|

ekologik to`garaklar dasturiga amaliy sayohatlarni kiritish hamda ta'lim muassasalari va tabiat bog`i ma'muriyati o`rtasida eko-aksiyalar hamda daraxt ekish loyihalarini qamrab oluvchi doimiy hamkorlikni yo`lga qo`yish maqsadga muvofiqdir.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR :

1. G`ofurov A. T., Tolipova J. O. va b. Biologiya o`qitish metodikasi. - Toshkent: Bilim, 2004

2. Musatafayev S. B. Uzluksz ta'lim tizimida ekologik ta'lim va tarbiyaning pedagogik asoslari.

3. Tolipova J.O. Biologiyani o`qitishda innovatsion texnologiyalar - Toshkent,2014

4. Xorazm milliy tabiat bog`ining ekoturistik va biologik salohiyatini o`rganish masalalari // Science and Innovation xalqaro ilmiy jurnali. - 2023

5. Zaxlebniy A.N.,Zverev I.D., Suravegina I. T.